

FARG'ONA VODIYSIDA JOYLASHGAN QISHLOQLAR TARIXI
(MADANIYAT QISHLOG'I MISOLIDA)



Raimjonov Ziyoxiddin Raxmonjon o'g'li
*Andijon davlat pedagogika instituti, ijtimoiy
gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi,
tarix yo'nalishi 1- bosqich magistanti.*



Tajimirzayev Elyorbek
*Andijon davlat pedagogika instituti, Ijtimoiy gumanitar
fanlar kafedrası, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PHD, dotsent.*

*obod qishloq va obod mahalla dasturlari mamlakatimizning eng chekka hududlariga
ham yangilash nafasini , bunyodkorlik ruhini olib kirmoqda qishloqda turmush
madaniyat oshib bormoqda.*

Shavkat Mirziyoyev

Annotatsiya:Maqolada Andijon viloyati Paxtaobod tumanida joylashgan Madaniyat qishlog'i haqida ma'lumoylar keltirilgan.

Kalit so'zlar:Madaniyat, Izboskan, Moyli suv, Masjid, Xoja Taqsim ota, Qishloq aholisi.

KIRISH

Madaniyat qishlog'i tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Madaniyat qishlog'I arablar tomonidan Movorunnahr bosib olingandan so'ng tashkil topgan. Bugungi kunda Madaniyat qishlog'i Andijon viloyatining shimoliy qismida joylashgan bo'lib qo'shni Kirgiziston Respublikasining Jalilobod viloyatiga qarashli Burgandi qishlog'I bilan chegaradosh. Madaniyat qishlog'ining havosi sofliqi , ariq va soylari tiniqligi va bir qancha tabiiy resurs orqali boshqa qishloqlardan ajralib turadi. Qishloq viloyat markazidan 35 km uzoqlikda bo'lib 1200 metr balandlikda joylashgan .

Madaniyat qishlog'ining yonbag'ridan Kirgiziston Respublikasining yam – yashil vodiylari va uning ortida Tyanshan tog' tizmasi qad rostlab turadi. Madaniyat qishlog'ning oldingi nomi Izboskan bo'lgan qishloqda yashagan yoshi ulug' insonlarning aytichicha qishloqqa Xoja Taqsim avliyo ota iz bosib kelgan shu sababdan qishloq dastlab Izboskan deb yuritilgan. 1926- yil sentabr oyida qishloqning nufuzli kishilari yigi'lishib Izboskan nomini Madaniyat deb o'zgartirishga kelishib olishadi. Qishloqqa Madaniyat deb nom berilishiga qishloqdan ko'plab ilmiy, madaniyatli, dono kishilarning yetishib chiqqani sabab bo'ladi Izboskan nomi esa hozirda markazi Poytug' bo'lgan tumanga beriladi. Madaniyat qishlog'iga kirishda Xoja Taqsim avliyo ota maqbarasi barpo etilib hozirda ziyoratchilar manzilgohiga aylantirilgan. Madaniyat qishlog'ida yashab o'tgan qishloq ahli uchun o'zidan o'chmas iz qoldirib ketgan insonlar sifatida Immatali xoji va Otaqo'zi xojilarning xizmatlari benihoya kattadir. Bu insonlar XX asr boshlarida qishloqning eng boy va aqlli kishilari hisoblangan Immatali xoji 1913 – yilda o'z mablag'i hisobidan ariq bo'yida masjid qurdirgan. Masjid hozirda "Immatalixoji" nomi bilan qishloq aholisiga xizmat qilmoqda. Masjid qishloqda saxna deb ham ataladi. 1913 – yilda Otaqo'zi xoji tomonidan qishloqdagi dastlabki madrasa bunyod etiladi. Madrasada islom ilmlarini o'rgatish yo'lga qo'yiladi lekin tez orada O'rta Osiyoda Sovet hokimiyati o'rnatilgach yurtimizdagi boshqa madrasalar qatori Otaqo'zi xoji madrasasi ham yopilib sovetlar tomonidan qishloqning mineral o'g'itlar saqlanadigan omboriga aylantiriladi. 1991- yil O'zbekiston mustaqillika erishgach Otaqo'zi xoji madrasasi masjidga aylantirilib aholiga xizmat ko'rsatib kelmoqda. Qishloq aholisining asosiy mashg'uloti qadimdan dehqonchilik bo'lgan ayniqsa sholi yetishtirish rivojlangan. Madaniyat ahlining xo'jaligida Moyli soy muhim ahamiyat kasb etgan Moyli soy Kirgiz respublikasidan boshlanib Madaniyat qishlog'ining o'rtasidan oqib o'tib Katta Farg'ona kanaliga qo'shiladi. Moyli soy qishloq aholisining og'zaki so'zlashuv shevasini ikkiga bo'lishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan 60 – 70 yillar oldin Moyli soy to'lib oqqan hozirda esa soy kengligi qisqarib ketgan. Moyli soyning qisqargan hududi bugungi kunda aholi tomonidan sholi yetishtiriladigan hududga ba'zi joylari esa bog' – rog'larga dam olish maskanlariga aylantirilgan. Soyning Moyli deb nomlanishiga sabab soy boshlanishi atrofidagi buloqdan moy sizib chiqqan va soyga qo'shilib oqqan shu tufayli Moyli soy deb atalgan. Moyli soy bo'yida qishloq aholisi uchun bozor faoliyat olib borgan bu bozor 2018 – yilda qayta qurilib eski o'rnidan 250 metr uzoqlikda joylashgan bozor haftaning shanba kunlari aholiga xizmat qilgan. Shu sababdan qishloq aholisi bozorni shanba bozor deb atashadi. Madaniyat qishlog'ida joylashgan sihatgoh respublikamizning barcha hududidan keluvchi mehmonlarni mamnun etmoqda chunki bu sihatgohda shifobaxsh buloq suvi mavjud. Madaniyat qishlog'I aholisi birdam mehmondo'st bir birlariga yordam beruvchi xalq bo'lgan bunga misol tariqasida 2 – jahon urishi davrini aytish mumkin Qishloqdan urushga

ketganlar 135 kishini tashkil etgan front uchun yosh-u qari qo'ldan kelgancha ishlagan kiyim- kechak quritilgan mevalar tinimsiz markazga yetkazib turilgan.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Madaniyatning qishloq sifatida O'zbekiston tarixidagi o'rni muhim va qiziqarlidir Madaniyat qishlog'i tarixi orqali biz xalqimizning turmush tarzi hayoti bilan tanishishimiz mumkin bugungi kunga kelib qishloqlar tarixini sinchkovlik bilan o'rganish orqali fanda yangiliklar yaratilmoqda Har bir davlat uchun qishloq va uning xo'jaligi muhim ahamiyat kasb etadi qishloq infratuzilmasini rivojlantirmasdab turib sanoat darajasiga yetib bo'lmaydi xususan Madaniyat qishlog'I misolida hozirda bir qancha ishlab chiqarish korxonalari faoliyati yo'lga qo'yilgan ayniqsa qishloqda klaster tizimini kuchaytirish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda.

Adabiyotlar

- 1.Shavkat Mirziyoyev ; O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi yigirma yeti yilligiga bag'ishlangan nutqi
- 2.Obidjon Otanayev ; Madaniyat qishlog'i tarixidan